



UDK: 94(575.171)61

Sanjarbek DJUMANOV,
Imom Buxoriy xalqaro-ilmiy tadqiqot markazi ilmiy xodimi, PhD
E-mail: sanjar.djumanov@bk.ru

PhD O'.Mattiyeu taqrizi asosida.

YANGI O'ZBEKISTONDA IMOM MOTURIDIY ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI

Annotatsiya

Mustaqillik yillarida Imom Moturidiy ilmiy merosini o'rganish va keng targ'ib qilish ishlari amalga oshirildi. 2016-yildan e'tiboran ushbu tadbirlar yangi bosqichga ko'tarildi. Mazkur maqola Yangi O'zbekistonda Imom Moturidiy ilmiy merosini o'rganish ishlari tarixiga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Imom Moturidiy, ilmiy meros, asarlar, xalqaro konferensiya, tarjimalar.

ИЗУЧЕНИЕ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ ИМАМА МАТУРИДИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В годы независимости проводились исследования и широкая пропаганда научного наследия Имама Матуриды. С 2016 года эти мероприятия вышли на новый уровень. Данная статья посвящена истории изучения научного наследия Имама Матуриды в годы независимости.

Ключевые слова: Имам Матуриды, научное наследие, труды, международная конференция, переводы.

STUDYING THE SCIENTIFIC HERITAGE OF IMAM MATURIDI IN NEW UZBEKISTAN

Annotation

In the years of independence, research and wide promotion of the scientific heritage of Imam Moturidi was carried out. Since 2016, these events have reached a new level. This article is devoted to the history of studies of the scientific heritage of Imam Moturidi during the years of independence.

Keywords: Imam Moturidi, scientific heritage, works, international conference, translations.

Kirish. Mustaqillik yillarida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalar qatori Imom Moturidiy ilmiy merosini o'rganish va keng targ'ib qilish ishlari boshlandi. Xususan, 1999-yil 3-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda alloma tavalludini keng nishonlash bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar ko'rsatib berildi. Xususan, Samarqand shahrining Registonga tutash Chokardiza qabristonidagi Imom Moturidiy maqbarasini rekonstruksiya qilish, mamlakat hududidagi alloma nomi bilan bog'liq qadamjo va obidalar ro'yxatini shakllantirish, ularni ta'mirlash, konservatsiya qilish bo'yicha takliflar tayyorlash va boshqa vazifalar belgilab berildi [5].

Ushbu qarorda nazarda tutilgan vazifalar ijrosi doirasida 2000-yil 17-noyabr kuni allomaning 1130 yillik tavallud sanasi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan Samarqandda alloma xotirasiga atab tiklangan yodgorlik majmusi ochildi [1:1]. Toshkent va Samarqandda Moturidiy ta'limoti va uning islom olamida tutgan mavqeiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar o'tkazildi. Ushbu konferensiyalarda Imom Moturidiy va uning ilmiy merosiga bag'ishlangan mavzularda ma'ruza qilindi.

2016-yildan e'tiboran bu boradagi ishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Jumladan, 2020-yil 11-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Ushbu hujjat asosida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" tashkil etildi. Imom Moturidiy va uning izdoshlari faoliyatini chuqur o'rganish, ularning aqida va kalom ilmi rivojiga qo'shgan bebaho hissasini tadqiq etish va boshqalar markazning asosiy maqsadi sifatida belgilandi [6].

Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida markaz tomonidan turli tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 2020-yilning 3-5 mart kunlari Samarqand shahrida "Imom Abu Mansur Moturidiy va moturidiya ta'limoti: o'tmish va bugun" mavzusidagi xalqaro konferensiya tashkil etildi. Anjumanda 15 ta mamlakatdan 70 ga yaqin ulamo, islomshunos olimlar, nufuzli ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlari rahbarlari ishtirok etdi. Ikki kun davom etgan konferensiyada qirqdan ortiq ma'ruza tinglandi. Ma'ruzalardan Imom Moturidiy shaxsi va aqidaviy qarashlari, moturidiya kalom maktabiga oid yangi manbalar, mazkur ta'limotning bugungi kundagi ahamiyati haqida yangi ilmiy ma'lumotlar berildi [10]. Konferensiya moturidiylik ta'limotini ilmiy asosda o'rganish va uning globallashuv jarayonida mo'tadil ta'limotni targ'ib qilishdagi o'rni asoslab berishga xizmat qildi.

Moturidiya ta'limotini xalqaro miqyosda targ'ib qilish va Markaz faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida uning qoshida Misr, Turkiya, Iordaniya, Albaniya, Germaniya, Rossiya, Malayziya, Afg'oniston, Qirg'iziston va O'zbekistonlik 22 nafar a'zodan iborat Xalqaro Ilmiy Hay'at tuzildi. Shuningdek, 2021-yil avgust oyigacha bo'lgan davrda Markaz tomonidan Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha islom olami tashkiloti (ICESCO), Turkiyaning Anqara va Saljuq universitetlari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatildi [3].

Markaz tashkil etilgan kundan to hozirgi kunga qadar qo'lyozma manbalarni o'rganish va targ'ib qilish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Imom Moturidiyning "Kitob at-Tavhid" asarining Buyuk Britaniyadagi Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanayotgan dunyoda yagona qo'lyozma nusxasi asosida o'zbek tilidagi ilmiy izohli tarjimai hamda tanqidiy matni tayyorlandi [2:6]. Mazkur asarning markazda tayyorlangan

ilmiy-izohli tarjimasini kitobni o'zbek tiliga tarjima qilishga ilk urinish bo'lgani bilan ham alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, ushbu asar Imom Moturidiyning e'tiqod sofigini ta'minlash maqsadida yozgan shoh asari bo'lib, moturidiylik ta'limotiga oid birlamchi va eng mo'tabar manba hisoblanadi. Markaz ilmiy xodimlari asarning tarjima matnini alloma qoldirgandek va izdoshlari o'qiganidek o'quvchiga taqdim etishga qaror qildi. Matnda xato mavjud va ma'no berish imkonsiz yoki hech qanday izoh yo'q, degan xulosaga kelingandagina uni tahrir qilishga qaror qilindi. Daxl qilingan o'rinlar asosan izohda bo'lib, asosiy matnga imkon qadar tegilmadi [2:7].

Imom Moturidiy faoliyatini o'rganish va uni jahonga targ'ib qilish bo'yicha xalqaro onlayn uchrashuvlar ham tashkil etildi. Jumladan, 2020-yil 17-dekabrda "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi: istiqboldagi rejalar" nomli xalqaro onlayn matbuot anjumani o'tkazildi. Konferensiyada jahonning 20 ga yaqin mamlakatidan 40 dan ziyod islomshunos olim va mutaxassislar, xalqaro tashkilot va ilmiy muassasalar rahbarlari ishtirok etdi. Bundan tashqari, 2021-yilda Singapurning Nanyang texnologiyalar universiteti huzuridagi Rajaratnam xalqaro tadqiqotlar maktabi bilan davra suhbat va "Moturidiylik ta'limoti va hozirgi zamon" mavzusida xalqaro onlayn ilmiy-amaliy simpoziumi o'tkazildi [9]. Bunday tadbirlarning o'tkazilishi Imom Moturidiy ilmiy merosini o'rganish va uni targ'ib qilishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Imom Moturidiy asarlarini tarjima qilishga ham katta e'tibor berildi. Jumladan, 2022-yilda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi olimlari tomonidan Moturidiylik ta'limoti asosi bo'lgan "Ta'vilot al-Qur'on" asarining dastlabki 30-juzi o'zbek tiliga tarjima qilindi va nashr etildi [14]. Tarjimada Imom Moturidiy qarashlarini imkon qadar yengil, tushunish oson bo'lgan uslubda xalqimizga yetkazishga harakat qilindi. Qur'oni karim oyatlari tarjimasini keltirishda Shayx Abdulaziz Mansur qalamiga mansub "Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri" asaridan keng foydalanildi [4].

Ushbu asarning keyingi juzlari tarjimasini ham amalga oshirildi. Jumladan, 2022-yilda Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimlari tomonidan "Ta'vilot al-Qur'on" asarining 27, 28 va 29-juzlari, 2023-esa 25-26 juzlari tarjima qilindi. Ushbu asarning tarjima qilinishi xalqimiz orasida islom ma'rifatini yoyish, moturidiylik ta'limotining o'rni yanada mustahkamlash, yosh avlodni botil g'oyalardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimlari tomonidan alloma ilmiy merosini o'rganish bilan bir qatorda moturidiy allomalar hayoti va ilmiy faoliyatiga oid qator tadqiqotlar ham olib borildi. Xususan, moturidiy allomalar to'g'risida ma'lumot beruvchi "Buyuk ajdodlarimiz" rukni ostida xalqchil risolalar, shuningdek, Imom Pazdaviyning "Usul ad-din", Abul Muin Nasafiyning "Bahr al-kalom", yurtimizdan yetishib chiqqan moturidiylik ta'limoti allomalaridan Imom Zandavistiy qalamiga mansub "Ravzat al-ulum va nuzhat al-fuzalo" asarining o'zbek tilidagi nusxasini yaratish ustida ish olib borildi.

Bundan tashqari, Markaz tomonidan "Moturidiylik ta'limoti bibliografiyasi" nomli kitob ham nashrga tayyorlandi. Unda moturidiylik ta'limotiga oid klassik manba va zamonaviy adabiyotlar haqida ma'lumotlar jamlandi [2:7]. Mazkur kitob moturidiylik ta'limoti bo'yicha kelajakda olib boriladigan ilmiy-tadqiqotlar uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Keyingi yillarda ham alloma ilmiy merosini o'rganish va uni keng targ'ib etish ishlari davom ettirildi. Xususan, 2025-yil 14-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligini keng nishonlash

to'g'risida"gi qarori [7] e'lon qilindi. Mazkur qaror asosida alloma tavalludining 1155 yilligiga bag'ishlangan tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tarkibi tasdiqlandi. Shuningdek, tashkiliy qo'mita oldiga allomaning tavallud sanasini u zotning obro'-e'tibori va nufuziga mos tarzda nishonlash bo'yicha chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash vazifasi qo'yildi.

Qaror asosida tasdiqlangan rejada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar o'z aksini topdi. 2025-yil aprel oyida Samarqand shahrida "Moturidiylik – bag'rikenglik, mo'tadillik va ma'rifat ta'limoti" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazish, xorijlik tadqiqotchilar o'rtasida moturidiylik ta'limoti bo'yicha ilmiy tanlov o'tkazish, g'oliblar ishtirokida O'zbekistonda madaniy-ma'rifiy uchrashuv va seminar-treninglar tashkil etish, Imom Moturidiyning "Ta'vilot al-Qur'on" va "Kitob at-tavhid" asarlari va moturidiylik ta'limotiga oid manbalarning o'zbek va xorijiy tillardagi ilmiy-izohli akademik tarjimalarini nashr etish va boshqalar shular jumlasidandir [7].

Yuqorida keltirilgan vazifalar ijrosi doirasida 2025-yil 29-30 aprel kunlari Samarqand shahrida "Moturidiylik – bag'rikenglik, mo'tadillik va ma'rifat ta'limoti" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Anjumanda Misr, Turkiya, Malayziya, Buyuk Britaniya, Indoneziya, BAA, Saudiya Arabistoni, Kuvayt, Qatar, Pokiston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston kabi 26 davlatdan 70 dan ziyod muftiy, nufuzli islomshunos olim, moturidiyshunos tadqiqotchilar, davlat va jamoat arboblari, diniy-ma'rifiy soha vakillari ishtirok etdi [12].

Anjuman yalpi majlisida ishtirokchilar tomonidan alloma ilmiy merosi, moturidiylik ta'limotining mohiyati va uning bugungi kundagi ahamiyati kabi muhim masalalar muhokama qilindi. Anjuman so'nggida alloma ilmiy merosi va moturidiylik ta'limotini o'rganishni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha nufuzli olimlarning taklif va tashabbuslari asosida yakuniy deklaratsiya qabul qilindi. Unda hozirgi kundagi dolzarb masalalarga yechim topish, xususan, adashgan oqimlarga qarshi raddiyalar berishda moturidiylik ta'limotining o'rni ishtirokchilar tomonidan e'tirof etildi. Bundan tashqari, konferensiya davomida yurtimizdagi ilmiy-ma'rifiy markazlar tomonidan tayyorlangan kitoblar ko'rgazmasi ham tashkil qilindi. Unda Imom Moturidiyning "Ta'vilot al-Qur'on" va "Kitob at-Tavhid" asarlarining o'zbek tilidagi tarjimalari ham o'rin oldi [12].

Alloma ilmiy merosini o'rganish va uni xalqimiz orasida keng targ'ib etish borasida Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan ham qator ishlar amalga oshirildi. 2024-yilda esa ijtimoiy tarmoqlarda sohaga tegishli 1458 ta material e'lon qilindi, 5 ta publitsistik maqola nashr etildi, shuningdek, 8 ta teleko'rsatuv va 18 ta radioeshittirish tayyorlandi [8]. Amalga oshirilgan bunday tadbirlar alloma ilmiy merosini xalqimiz orasida keng targ'ib qilish ishlarida muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan, 2025-yil avgust oyi holatiga ko'ra, turli mavzularda ma'lumot beriladigan Markaz telegram kanalining obunachilari soni qariyb bir yarim ming nafarga yetgan bo'lsa [11], qisqa videolar joylashtiriladigan Yotube platformasi obunachilari soni 7300 [13] dan oshdi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mustaqillik yillarida Imom Moturidiy ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilish ishlari ko'plab ishlar amalga oshirildi. Bunda 1999-yilda Hukumat tomonidan Alloma yubileyini nishonlash to'g'risidagi qaror muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 2016-yildan e'tiboran, Imom Moturidiy ilmiy merosini o'rganish ishlari yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan 2020-yilda Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi. Markaz faoliyati natijasida alloma asarlarini o'zbek tiliga ilmiy-izohli tarjimalarini amalga oshirish yo'lga qo'yildi, shuningdek, moturidiy allomalar asarlarining o'zbek tiliga tarjimalari

amalga oshirildi. Shu bilan birga, alloma ilmiy merosini nafaqat xalqimiz orasida, balki jahon miqyosida targ'ib etish maqsadida xalqaro konferensiyalar tashkil etildi. Shu va

boshqa omillar Alloma ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilishda katta ahamiyatga ega bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. Bo'riboev I. Prezident Islom Karimovning Burhoniddin Marg'imoniy tavalludining 910 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi. Ma'rifat gazetasi, 2000 yil 18 noyabr. – B.1.
2. Karimov J. So'nggi yillarda Imom Moturidiy merosining yurtimizda o'rganilishi: erishilgan natijalar va istiqboldagi rejalar. Moturidiylik. 2024 yil 2-son. – B.6.
3. Maqsudov D. Imom Moturidiy va uning izdoshlariga ko'rsatilayotgan yuksak e'tibor. Yangi O'zbekiston gazetasi, 2020 yil mart oyi.
4. <https://hilolnashr.uz/tavilot-al-quron-30>
5. <https://lex.uz/docs/1592041#1592084>
6. <https://lex.uz/docs/4945427>
7. <https://lex.uz/docs/7431408>
8. <https://moturidiy.uz/ignorance/infographic-detail?id=5&lang=uz>
9. <https://moturidiy.uz/uz/news/290>
10. <https://nasafziyo.uz/index.php?newsid=1008>
11. <https://t.me/moturidiyuz>
12. https://uza.uz/ru/posts/moturidiylik-talimoti-ezgulikka-marifatga-boshlaydi_715129?q=%2Fposts%2Fmoturidiylik-talimoti-ezgulikka-marifatga-boshlaydi_715129
13. <https://www.youtube.com/channel/UCd-YsWfYGqDRDyv8NNLQYgQ>
14. <https://zarnews.uz/post/tavilot-al-quron-quroni-karim-tafsiriga-bag'ishlangan-motabar-manba>